


II. SANOAT

Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
(2024-yil yanvar-iyun)



2024-yilning yanvar-iyun oylarida 18 602,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush sanoat mahsulotlarin qayta ishlaydigan korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 96,8 % ni tashkil etdi.

Statistik hisob-kitoblar bo‘yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 7 186,4 mlrd. so‘m miqdorida (jami sanoat mahsulotlari hajmining 38,6 foizi)ga baholandi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilga nisbatan 114,7 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 1 900,7 mlrd. so‘m miqdorida (10,2 foiz) hisob-kitob qilindi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 18 007,3 mlrd. so‘m bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 96,8 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, hisobot davrida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo‘yicha 335,1 mlrd. so‘m (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 1,8 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo‘yicha 141,6 mlrd. so‘m (0,8 %) hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyat turi bo‘yicha 118,9 mlrd. so‘m (0,6 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.


Sanoat ishlab chiqarishning o‘shiga elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo‘shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 1,8 foizni tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘ati



■ hajm, mlrd. so‘m ◆ sanoat ishlab chiqarish indeksi, % da

2024-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	mlrd. so'm		fizik hajm indeksi, % da	jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida	
	2023-y.	2024-y.		2023-y.	2024-y.

Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

14 652,2	18 602,9	108,0	100,0	100,0
----------	----------	-------	-------	-------

iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

163,0	118,9	72,3	1,1	0,6
-------	-------	------	-----	-----

ulardan:

Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari

163,0	118,9	72,3	1,1	0,6
-------	-------	------	-----	-----

Yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish

0,0	0,0	0	0	0
-----	-----	---	---	---

Qayta ishlash sanoati

14 221,8	18 007,3	109,0	97,1	96,8
----------	----------	-------	------	------

undan:

Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish

5 727,2	6 762,0	100,8	39,1	36,3
---------	---------	-------	------	------

To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish

3 449,9	4 191,7	102,3	23,5	22,5
---------	---------	-------	------	------

Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish

384,4	458,2	104,6	2,6	2,5
-------	-------	-------	-----	-----

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

12,6	29,2	179,4	0,1	0,2
------	------	-------	-----	-----

davomi

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>fizik hajm indeksi, % da</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2023-y.</i>	<i>2024-y.</i>		<i>2023-y.</i>	<i>2024-y.</i>
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	349,6	702,4	160,7	2,4	3,8
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	25,0	86,7	301,5	0,2	0,5
Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	63,7	87,7	103,5	0,4	0,5
Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	493,7	1 137,2	202,5	3,4	6,1
Metallurgiya sanoati	1 555,2	1 820,6	94,0	10,6	9,8
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	361,4	483,4	139,1	2,5	2,6
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	27,6	0,9	2,8	0,2	0,0
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	356,5	483,1	110,5	2,4	2,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	25,7	61,0	184,1	0,2	0,3
Mashina va uskunalari ta'mirlash va o'rnatish	11,5	33,8	156,6	0,1	0,2
boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	19,9	42,9	176,9	0,1	0,2
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	163,0	335,1	104,0	1,1	1,8
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	104,4	141,6	89,9	0,7	0,8


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 118,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (umumiy hajmga nisbatan ulushi, foiz hisobida)

2023-yil yanvar-iyun



2024-yil yanvar-iyun



Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar boʻyicha)

	oʻlchov birligi	yanvar-iyun oylarida		2023-yilga nisbatan, % hisobida
		2023-y.	2024-y.	

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tabiiy gaz ishlab chiqarish	mln.m.kub	-	-	-
Ohak tosh	ming tn.	-	-	-
Chaqiq tosh (sheben)	ming tn.	256,0	185,2	72,4

	<i>o'lchov birligi</i>	<i>yanvar-iyun oylarida</i>		<i>2023-yilga nisbatan % hisobida</i>
		<i>2023-y.</i>	<i>2024-y.</i>	
Qayta ishlash sanoati				
Aroq mahsulotlari	<i>ming l. 100% spirt</i>	12,6	76,3	6,1 m.
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>tn.</i>	29 065,7	28 408,4	97,7
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar	<i>tn.</i>	-	-	-
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 g. (buxanka)	<i>tn</i>	367,5	292,2	79,5
Guruch mahsulotlari	<i>tn</i>	-	-	-
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	<i>tn.</i>	18 287,0	25 440,0	139,1
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor omuxta yem mahsulotlari	<i>ming tn.</i>	44,8	44,9	100,2
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	31,1	29,0	93,2
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	45,6	41,9	92,1
Paxta tiviti (lint)	<i>tn.</i>	2 876,0	2 275,6	79,1
Tarkibida uchta ta'minlovchi element - azot, kaliy va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	<i>ming tn.</i>	11,8	10,9	92,7
Tamaki mahsulotlari	<i>mln dona.</i>	5 110,6	4 838,5	105,6
Gilam va gilam mahsulotlari	<i>ming kv.m.</i>	13 517,7	13 931,9	103,1
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash				
Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	76,5	105,3	137,6
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	7,3	0	0

davomi

	o'lchov birligi	yanvar-iyun oylarida		2023-yilga nisbatan, % hisobida
		2023-y.	2024-y.	


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari	mln. so'm	54 721,6	64 801,2	118,4
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	mln. so'm	25 276,0	32 426,	128,3

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18 007,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,8 % tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 foizni, o'rta-yuqori texnologiyali 13,1 foizni, o'rta-quyi texnologiyali 21,5 foiz va quyi texnologiyali 61,7 foizni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O‘z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan paxta ipi 121,5 foizga, tozalangan yog‘lar va uning fraksiyalari 139,1 foizga, yuk avtomobillari ishlab chiqarish 136,0 foizga oshgan bo‘lsa, yumshoq bug‘doy va spelta uni ishlab chiqarish o‘tgan yilga nisbatan 3,3 foizga, koniyak spirti 72,7 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 335,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 foizni) tashkil etdi.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 141,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 foizi) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarining 10,1 foizga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarning 21,1 foizga oshganligi kuzatildi.

Shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari *(jamiga nisbatan ulushi)*

Viloyatning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng yuqori ulush Samarqand shahri (40,2 %), Jomboy (9,9 %), Toyloq (6,5 %), Urgut (7,8 %), Samarqand (7,2 %), Kattaqo‘rg‘on (4,9 %), Ishtixon (2,9 %) hamda Pastdarg‘om (3,3 %) tumanlari hissasiga, eng past ko‘rsatkich Qo‘shrabot (0,5 %), Nurobod (1,4 %) hamda Oqdaryo tumani (2,2 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 1 790,7 mlrd. so‘mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o‘sishi bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘shirishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	80	104
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	61	66
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	1 017,6	1 790,7
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	4,4	7,6
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	241	403

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 7 764,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qo'shma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 41,7 foizni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat
korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati**
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2023-yilning yanvar-iyun oylarida 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali 13,1 % (13,5 %), o'rta-quyi texnologiyali 21,5 % (17,3 %) va quyi texnologiyalisi 61,7 % (66,0 %) ni tashkil etdi.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 2,0 m.), metallurgiya sanoatining ulushi 9,8 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 22,5 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 36,3 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 75,3 tonna (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 20,5 % ga) hamda 0,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (3,3 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish (2024-yil yanvar-iyun oylarida)

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 1 492 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 36,0 % ga ko'paygan.

Avtobuslar ishlab chiqarish (2024-yil yanvar-iyun oylarida)

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-iyun oylarida 427 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,5 % ga kamaygan.

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 118,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,8 % gacha pasayib, fizik hajm indeksi esa 94,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 820,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 86,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 6,1 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 2,0 martani va ishlab chiqarish hajmi 1 137,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 107,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 27,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 99,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 081,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 110,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 205,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 19,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 117,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,6 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 102,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 461,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 112,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 %, fizik hajm indeksi 103,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 539,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 133,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 129,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 273,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 193,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 %, fizik hajm indeksi 97,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 239,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni 5 243 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 995 taga yoki 16,0 % ga kamaygan.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 681 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan 105 tasi Samarqand shahriga, 98 tasi Samarqand tumanida, 52 tasi Toyloq tumanida, 71 tasi Pastdarg'om tumanida va 52 tasi Urgut tumanida ro'yxatga olingan.


2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini

	<i>Faoliyat yuritayotgani</i>	<i>shundan</i>		<i>yanvar-iyun oylarida tashkil etilgan</i>
		<i>yirik korxonalar</i>	<i>kichik biznes</i>	
Jami	5 243	68	5 175	681
Samarqand sh.	1 081	30	1 051	105
Kattaqo'rg'on sh.	218	2	216	26
tumanlar:				
Oqdaryo	220	1	219	23
Bulung'ur	190	1	189	30
Jomboy	250	4	246	30
Ishtixon	292	1	291	41
Kattaqo'rg'on	252	6	246	32
Qo'shrabot	136	-	136	19
Narpay	191	2	189	25
Payariq	197	1	196	25
Pastdarg'om	372	3	369	75
Paxtachi	171	6	165	31
Samarqand	554	4	550	98
Nurobod	121	1	120	21
Urgut	723	4	719	52
Toyloq	275	2	273	52

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2024-yil 1-iyul holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2024-yil yanvar-iyun)



2024-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish

	<i>Hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>2023-yilga nisbatan, % da</i>	<i>Aholi jon boshiga, ming so‘m</i>	<i>2023-yilga nisbatan, % da</i>
Samarqand viloyati	18 602,9	108,0	4 399,1	105,7
Samarqand sh.	7 472,3	104,6	12 710,9	102,5
Kattaqo‘rg‘on sh.	433,8	117,3	4 560,9	115,8
tumanlar:				
Oqdaryo	414,7	112,3	2 381,7	109,7
Bulung‘ur	507,5	106,5	2 497,9	104,0
Jomboy	1 848,8	106,8	9 700,7	104,2
Ishtixon	540,9	107,2	1 950,6	104,9
Kattaqo‘rg‘on	920,3	113,2	3 118,6	110,9
Qo‘shrabot	93,3	112,1	654,8	109,9
Narpay	488,1	109,2	2 138,1	107,3
Payariq	442,9	106,1	1 611,5	103,6
Pastdarg‘om	610,4	106,6	1 584,9	104,3
Paxtachi	578,8	108,5	3 787,6	106,9
Samarqand	1 331,8	108,1	4 856,1	105,9
Nurobod	256,8	102,1	1 573,1	100,1
Urgut	1 444,3	109,2	2 568,9	106,5
Toyloq	1 218,2	105,7	5 481,1	103,1